


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7 159,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,2 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **920,6** mlrd. so'mni (**16,4 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6 238,5** mlrd. so'mni (**8,2 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1118,4** mlrd. so'mni (**8,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7159,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,2 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **87,1 %** va yirik korxonalar hissasiga **12,9 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **25,4 %** ulush bilan **1816,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Jizzax sh.
1 816,6

Zomin
871,8

G'allaorol
512,0

Paxtakor
281,6


Mirzacho'l
181,9

Arnasoy
151,4

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,1 %** ulush bilan **75,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2019- yil yanvar-dekabr
		2020- yil yanvar-dekabr

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **6 238,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,2 %** ga oshdi . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **87,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,5 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,0 %), G'allaorol (98,0 %), Forish (97,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	7159132,9	104,2	920577,2	83,6	6238555,7	108,2
Jizzax sh.	1816604,1	101,7	367806,2	83,6	1448797,9	107,7
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	151422,8	106,5	2197,7	186,6	149225,1	105,8
Baxmal	1481479,3	103,5	456175,3	81,8	1025304,0	117,3
G'allaorol	511973,3	105,6	10477,1	111,8	501496,2	105,4
Sharof Rashidov	974021,1	104,5	2053,5	135,3	971967,6	104,5
Do'stlik	225897,1	106,8	7178,0	116,9	218719,1	106,5
Zomin	871760,1	104,7	33048,0	118,3	838712,1	104,2
Zarbdor	223602,6	107,0	6003,4	139,1	217599,2	106,3
Zafarobod	113798,7	110,8	2098,2	179,6	111700,5	110,0
Mirzacho'l	181881,7	108,1	5074,0	119,4	176807,7	107,8
Paxtakor	281647,6	106,4	21099,6	49,5	260548,0	117,3
Forish	249603,6	107,4	5827,8	137,8	243775,7	106,8
Yangiobod	75441,1	106,7	1538,5	185,8	73902,6	105,8

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **16,4 %** ga kamaydi va **920,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,9 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 238,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,2 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,1 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,5 %), Zafarobod (98,2 %), Yangiobod (98,0 %), G'allaorol (98,0 %), Forish (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (20,4 %), Paxtakor (7,9 %), Baxmal (31,0 %), Zomin (3,7 %) va Do'stlik (3,1 %) tumanlarida kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar - dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 127,2** ming so'm (2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **2,1** % ga oshdi), barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**10 143,0** ming so'm), Baxmal (**9 400,2** ming so'm), Zomin (**5 277,0** ming so'm) va Sharof Rashidov (**4 363,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	5127,2	102,1
Jizzax sh.	10143,0	99,9
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	3277,6	105,1
Baxmal	9400,2	101,2
G'allaorol	2956,0	103,4
Sharof Rashidov	4363,9	101,7
Do'stlik	3422,7	104,9
Zomin	5277,0	102,4
Zarbdor	2567,2	104,2
Zafarobod	2271,4	109,0
Mirzacho'l	3484,3	105,6
Paxtakor	3755,3	104,4
Forish	2681,0	105,8
Yangiobod	2665,8	104,8

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1118,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,1 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **384,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **21,8 %** ga kamaydi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **734,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **1,1 %** ga oshdi) .

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **384,4** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **734,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT) ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1118,4	91,9	384,4	78,2	734,0	101,1
Jizzax sh.	162,6	74,8	162,6	73,3	0,0	0,0
tumanlar:						
Arnasoy	38,0	89,1	6,9	70,1	31,1	94,8
Baxmal	224,5	150,9	31,6	220,9	193,1	143,5
G'allaorol	106,9	69,8	33,4	53,6	73,5	80,9
Sharof Rashidov	115,9	64,6	0,0	0,0	115,9	64,6
Do'stlik	57,6	125,1	20,0	71,9	37,6	206,3
Zomin	167,2	82,1	61,3	76,4	105,9	86,2
Zarbdor	69,6	112,8	8,8	84,7	60,7	118,5
Zafarobod	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Mirzacho'l	26,9	73,4	10,6	93,7	16,2	64,3
Paxtakor	77,0	171,4	19,5	87,0	57,5	255,3
Forish	49,5	83,3	27,8	98,9	21,7	69,3
Yangiobod	22,7	95,1	1,9	63,5	20,8	99,5

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



4,5
mlrd. so'm

Tuzlamalar



154,3
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



11,8
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

62,2
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



22,9
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

23,5
mlrd. so'm



Tuxum

48,7
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

14,6
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

6,6
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **384,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**154,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

8,8
mlrd. so'm



Ziravorlar

26,5
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **734,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **541,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **170,9** mlrd. so'mni, otlar **12,4** mlrd. so'mni, parrandalar **3,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,7 %** ni tashkil etib, **124,0** mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **18,2 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	123961,6	81,8	123961,6	81,8
Jizzax sh.	62308,6	78,4	62308,6	78,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	827,8	94,1	827,8	94,1
Baxmal	2231,9	91,0	2231,9	91,0
G‘allaorol	7635,5	81,6	7635,5	81,6
Sh. Rashidov	21468,0	84,7	21468,0	84,7
Do‘stlik	4122,6	85,3	4122,6	85,3
Zomin	8521,7	82,5	8521,7	82,5
Zarbdor	3535,4	94,0	3535,4	94,0
Zafarobod	1102,7	85,9	1102,7	85,9
Mirzacho‘l	4476,8	93,4	4476,8	93,4
Paxtakor	3793,2	91,2	3793,2	91,2
Forish	3239,7	78,8	3239,7	78,8
Yangiobod	697,7	94,5	697,7	94,5

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 149,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **16,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **433,8** mlrd. so'mni (**59,2 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 715,2** mlrd. so'mni (**14,0 %** ga oshdi) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangiobod (**2,5 marta**), Baxmal (**150,0 %**) va Forish (**145,1 %**) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari Baxmal (**138,4 %**), Yangiobod (**119,7 %**), Forish (**118,7 %**), Zomin (**113,3 %**) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so‘m	2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	2148982,4	83,7	433751,7	40,8	1715230,7	114,0
Jizzax sh.	1183306,5	79,0	215452,6	33,1	967853,9	114,2
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	12320,7	32,4	8201,0	23,7	4119,7	117,8
Baxmal	148904,8	138,4	110185,8	150,0	38718,9	113,4
G‘allaorol	49854,1	101,8	755,5	30,8	49098,6	105,6
Sh. Rashidov	151729,3	92,3	10876,3	25,2	140853,0	116,1
Do‘stlik	89245,9	69,5	11072,0	21,4	78174,0	102,1
Zomin	232267,6	113,3	4499,0	61,2	227768,5	115,2
Zarbdor	53119,4	71,4	23386,4	48,0	29733,0	116,0
Zafarobod	33200,7	60,5	16774,3	41,0	16426,4	118,1
Mirzacho‘l	21089,5	34,9	15129,5	27,3	5960,0	119,2
Paxtakor	37206,9	51,2	16713,5	30,6	20493,5	113,4
Forish	124824,7	118,7	422,8	145,1	124401,9	118,6
Yangiobod	11912,3	119,7	283,0	2,5 m.	11629,3	118,1

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- dekabr oylari yakuniga ko'ra, **1 715,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan **14,0** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **79,8** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Forish (**99,7** %), Yangiobod (**97,6** %), G'allaorol (**98,5** %), Zomin (**98,1** %), Sharof Rashidov (**92,8** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**26,0** %), Mirzacho'l (**28,3** %), Arnasoy (**33,4** %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:72-221-51-26